BERUNIY ASARLARIDA TAVSIFLANGAN *ZIZIPHORA PEDICELLATA* (LAMIACEAE) TURINING TABOBATDA TUTGAN O‘RNI

M.D. Berdimurodova, M.R. Nasriddinova
Qarshi davlat universiteti, berdimurodovamarguba@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Abu Rayhon Beruniy asarlarida tavsiflagan *Ziziphora pedicellata* turining qadimdan xalq tabobatida qo‘llanilganligi va ilmiy tibbiyotda antibakterial, antioksidant, yallig‘lanishga qarshi va spazmolitik xususiyatlari aniqlanganligi tahlil qilingan. Botanik tavsifi va kimyoviy tarkibi to‘g‘risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *Ziziphora*, dorivor, efir moyli, tabobat, damlama.

Аннотация. В статье анализируется древнее применение вида *Ziziphora pedicellata*, описанного в трудах Абу Райхана Беруни, в народной медицине, а также открытие его антибактериальных, антиоксидантных, противовоспалительных и спазмолитических свойств в научной медицине. Приведена информация по ботаническому описанию и химическому составу.

Ключевые слова: *Ziziphora*, лекарственная, эфирное масло, медицина, настойка.

Abstract. The article analyzes the ancient use of the species *Ziziphora pedicellata*, described in the works of Abu Rayhan Beruni, in folk medicine, as well as the discovery of its antibacterial, antioxidant, anti-inflammatory and antispasmodic properties in scientific medicine. Information on the botanical description and chemical composition is provided.

Key words: *Ziziphora*, medicinal, essential oil, medicine, tincture.

Abu Rayhon Beruniy o‘z asarlarida o‘sha davrning xalq tabobatida keng foydalanilgan, bugungi kunda ham ilmiy jihatdan o‘rganilib, tibbiyotda qo‘llanilayotgan ko‘plab dorivor o‘simliklarni tavsiflab bergan. Bular orasida hozirgi kun tabobatida ham qo‘llanilayotgan *Ziziphora pedicellata* turiga oid ma’lumotlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Ziziphora pedicellata Pazij&Vved. – kiyiko‘t, bo‘yi 20-40 sm bo‘ladigan ko‘p yillik xushbo‘y o‘simlik. Lamiaceae Lindl. (yalpizdoshlar) oilasiga mansub bu o‘simlik O‘rta Osiyo, Ukraina, Kavkaz va Rossiyaning Yevropa qismida uchraydi. Tabiiy holda

ochiq joylarda, dashtlar, toshli-shag‘alli tepaliklar, dalalar va o‘rmon chetlarida o‘sadi [1, 2].

Ildizi yaxshi rivojlangan. Poyasi sershox, biroz egri-bugri, ingichka, pastki qismi yog‘ochlashgan. Barglari lantsetsimon, kalta bandli, mayin tukchali, poyada navbatma-navbat joylashgan. Gullari mayda, och siyohrang, mayin tuklangan, gullar 10-20 tadan novdalar uchida boshchasimon shingilga yig‘ilgan. Mevasi tukli, yong‘oqcha. Iyun-avgust oylarida gullaydi, mevasi iyul-sentyabrda yetiladi [2].

Z. pedicellata tarkibida ko‘p miqdorda efir moyi to‘plashi bilan qimmatbaho dorivor o‘simlik hisoblanadi. Efir moyi tarkibini karvakrol (40-70%), timol (10-25%), pinen, limonen, karyofillen tashkil etadi. Bundan tashqari o‘simlik tarkibida flavonoidlar (apigenin, luteolin, quercetin, rutosid), fenol birikmalar (klorogen kislotasi, kafein kislotasi, rozmarin kislotasi), organik kislotalar (malat, oksalat, sitrat), triterpen glikozidlar, flavonoidlar, oshlovchi moddalar, kumarinlar, oksikumarinlar, aminokislotalar, vitaminlar, jumladan, tokoferol bor. Kiyiko‘t selen to‘plab boradigan o‘simliklar qatoriga kiradi. Bu o‘simlikda har xil mikro- va makroelementlar (kaltsiy, kremniy, alyuminiy, temir, magniy, kobalt, rux, mis, marganets, molibden, xrom) bor [2, 3].

O‘simlikning yer ustki o‘t qismi доривор хомашё сифатида ишлатилади. Yer ustki o‘t qismi gullagan vaqtida gulli shoxchalari bilan birga yig‘ishtiriladi va soya joyda quritib, foydalaniladi.

Beruniy asarlarida *Z. pedicellata* o‘simligi “saisaban”, “Pudinal jabaliy”, “zujba”, “Mushktaromashi” kabi turli nomlar bilan yuritilgan bu o‘simlikni olim salqinlantiruvchi, yurakni mustahkamlovchi, asosan nafas yo‘llari va ovqat hazm qilish tizimi kasalliklarida foydali deb ta’riflaydi. Tish og‘rig‘i, tizza og‘rig‘i, me’da va jigar kasalliklarida davolovchi hamda gijja tushiruvchi vosita sifatida tavsiya etadi [4].

Kiyiko‘tning galen preparatlari (damlama va qaynatma) qon bosimini pasaytiradigan va yurakka quvvat beradigan tinchlantiruvchi ta’sirga ega. Bu preparatlar yurak toj tomirlarini kengaytiradi, buyrakda qon aylanishini kuchaytiradi va siydik ajralishini ko‘paytiradi.

Ilmiy tibbiyotda kiyiko‘tdan tayyorlangan damlama va qaynatmalar (10% li) gipertoniya kasalligi, stenokardiya, qon aylanishining yetishmovchiligi, buyrak-tomirlar kasalligi, shuningdek, diabet, stomatit, paradontozda, furunkulyoz va boshqa teri kasalliklarida ishlatiladi. 20% li damlamasi aritmiyalar (taxikardiya,

ekstrosistoliya) bilan o‘tayotgan yurak-tomirlar yetishmovchiligida, shuningdek, nevrasteniyada foyda beradi.

Kiyiko‘tning yelimi tarkibida ko‘zga davo bo‘ladigan dorilar bor. U issiq yo‘talni yumshatish xususiyatiga ega, o‘pka yaralaridan keladigan zararni kamaytiradi va ovozni yaxshilaydi.

Ildizidan tayyorlangan tinktura yoki kukun turli me’da-ichak kasalliklarigan qarshi, shuningdek, siydik haydaydigan va terlatadigan dori sifatida qo‘llaniladi. Uni diabetda, furunkulyoz, piodermiyada boshqa dorivor o‘simliklar bilan birgalikda ishlatish buyuriladi. Ildizidan tayyorlangan ekstrakt infeksiya tushgan jarohatlarga, yaralarga qo‘yish uchun ishlatiladi [3, 4, 5].

Xulosa qilib aytganda, Z. pedicellata turi tabiiy dorivor vosita sifatida ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, tabiiy antibiotik xossalariga ega bo‘lgan noyob o‘simlik sifatida tabobatida keng qo‘llaniladi.

Yuqorida berilgan ma'lumotlardan ko’rinib turibdiki, Z. pedicellata dorivor turi Beruniy davrida ham tabobatda keng iste’molda bo’lgan va tibbiyotda ko’p yillardan buyon ishlatilib kelingan va hozir ham farmakologiyada katta ahamiyatga egadir. Tarkibidagi efir moylari, flavonoidlari va fenol birikmalari tufayli antibakterial, antioksidant, yallig‘lanishga qarshi va spazmolitik ta’sirlarga ega ekanligi tasdiqlangan. Bu esa o‘simlikni farmatsevtika, xalq tabobati va fitoterapiyada istiqbolli o‘ringa ega ekanligini ko‘rsatadi. Shuningdek, Beruniy asarlarining ilmiy tibbiyotda ahamiyatli ekanligini isbotlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lazkov G.A. (Georgiĭ Anatol′evich). Labiatae (family Labiatae Juss.) in flora of Kyrgyzstan // Korean National Arboratum. – 2016. – 384 p. (2-24).

2. Plants of the World Online (POWO): открытый онлайн атлас-определитель растений. https://powo.science.kew.org/

3. Ganieva T.J., Sultanova N.A., Yunusov M.S. “Ziziphora species: Phytochemical and pharmacological aspects”. Phytomedicine, 2019. 62. 152963.

4. Абу Райхан Беруни. Избранные произведения. Т. IV. - Фармакогнозия в медицине (Китаб ас-Сайдана фи-т-тиб(б) //Отв. ред. А.К. Аренде. Исслед., пер., прим. и укз. У.И. Каримова. - Ташкент: Фан, 1974.

5. Холматов Ҳ.Х., Қосимов А.И. Доривор ўсимликлар. – Тошкент, 1994. – 368 б.